



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI
VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

Filologiya fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti
bakalavr ta’lim yo‘nalishi 4- «B» kurs talabasi

Bozorboyeva Sevaraning
O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI
fanidan

«O‘zbek adabiyotida esse janri taraqqiyoti»

mavzusida tayyorlagan

M U S T A Q I L I S H I

Nukus – 2015

R E J A :

1. Kirish
2. Ibn Sino hayoti va ijodini ilmiy-badiiy inkishofi
3. Ulug` ma`rifatchilar faoliyatining badiiy talQini
4. Xulosa
5. Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

KIRISH

So`nggi yillarda o`zbek adabiyoti adabiy-tanqidiy, hamda estetik tafakkurda yangi bosqichga ko`tarilib, kamolat pallasiga kirdi. Yaratilayotgan bir turkum asarlarda badiiylik va emotsionallikning chatishuvi (sintezi), tafakkurning teranligi, muallifning o`sha nozik ijodiy tabiati, aniq nuqtai nazari kishini o`ziga jalb qiladi. Esselar, badiiy etyudlar, qaydlar, qatralar shaklidagi adiblarning voqealikka, odamlar ruhiyatiga nazar tashlashdagi qalb ko`zi manzaralari keng o`quvchilar ommosi ko`ngliga yo`l topadi.

Ularni ma`lum ma`noda adabiy-tanqidchilar deyish mumkin.

Zero, adib-tadqiqotchilar ustoz san`atkorlar ijodidan ko`ngliga ingan shajribalarni, ijod saboqlarini, o`zining salmoqli ijodidan yig`ilgan ma`naviy-intelektual hamda ijodiy jamg`armani zamondoshlari, shogirdlari bilan do`stona o`rtoqlashadilar. Bevosita fikr almashishi jarayonida shoir yoki yozuvchi roman va qissalari, poema va balladalaridan ko`ra o`quvchi bilan ko`proq va ochiq-oydin fikrlashish imkoniyatiga ega bo`ladi.

O`ziga xos «fikrlashish» jarayonida adib-tadqiqotchi o`zining hayot, adabiyot va badiiy ijod xususidagi o`ylarini, mushohidakor mulohazalarini o`quvchilar qalbiga ko`chiradi.

Boshqacharoq qilib aytganda, kitobxonni hayot mazmuni, davr sur`ati, ijtimoiy taraqqiyot belgilari xususida, adabiyot va badiiy ijodning ijtimoiy mazmuni va mohiyati haqida, kelajak to`g`risida yanada sinchkovlik bilan fikrlashga da`vat etadilar. Demakki, zamondoshlarimizni hayotga, adabiyot ishiga yanada faol yondashishga, aralashishga jalb etishda katta bir kuch vazifasini o`taydilar.

Adabiyotimiz taraqqiyotining avvalgi bosqichlarida kuzatilmagan, sifat jihatidan yangi hodisa sanaluvchi «fikrlashish» mazmun va mohiyat jihatidan turli xil ilmiy, badiiy shakllar: (yozuvchi va tanqidchi dialog,

qaydlar, badiiy etyudlar, esselar, kundaliklar, qayd esdaliklar) tarzida zuhur topmoqda.

Xarakterli jihati shundaki, adiblarimizning mazkur shakllardagi fikrlari nafis adabiyot va badiiy ijod, ijod psixologiyasi, san`atkorlar laboratoriyasi kabi ilmiy-nazariy masalalar bilan cheklanib qolmayapti. Zamon va zamondoshlarimiz hayoti, davr va ijtimoiy taraqqiyot, inson taqdiri va insoniyat istiqboli xususidagi dil e`tiroflarini erkin tarzda mushohida–mulohazakorlik asosida bayon etish publitsistik ruhni ham talab etadi.

Darhaqiqat, adabiyotda ba`zan badialar deb umumiy nom bilan yurgizluvchi yuqorida nomlari sanalgan yangicha shakllarda kuzatiladi. Ya`ni publitsistik ruh, hujjatli nasr, falsafiy o`y-mushohadalar, lirik kechinmalar, real hayot-voqealik faktlari, hodisalar organik uyg`unlikda, yagona bir sinkretiklikda zuhur topayapti. Umumlashma xarakterdagi ilmiy-nazariy fikrlarning ustivorligi, erkin va bemaolol fikr-mulohaza yuritish, ichki lavha-epizodlarda mutaql syujet yo`nalishi va qahramonning mavjudodligi jamiyat hayotini, davrni, voqelikni, odamlar taqdirini, sang`atkor «men»i orqali idrok etish va estetik baholash ilmiy-badiiy asarlarga xos tamoyillardir.

San`atkor «men»i, san`atkor dunyoqarashidir. U san`atkorning qat`iy nuqtai nazari, estetik bahosi, orqali anglashiladi. Kitobxonning ma`naviy-intelektual darajasi, tayyorgarligi turfa xil ekanligi boisdan muayyan asar turli kishilarga turlicha ta`sir ko`rsatishi, o`y-mushohadalar uyg`otishi mumkin. Buni tabiiy hol deb qarash lozim.

IBN SINO HAYOTI VA IJODINI ILMIY-BADIY INKISHOFI

Esse janri hozir ingliz, amerika adabiyotida keng qo'llaniladigan janrlardan biri sanaladi,-deyiladi. «Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha lug'ati»⁹ kitobida. Biroq, kitob mualliflari o'zbek adabiyotida yaratilgan esselar hususida hech qanday ma'lumot bermaydilar. Bizning kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, adabiyotimizda essechilikning barcha turlarida asarlar yaratilgan. Biroq, ularning hech biri tadqiqot ob'ekti sifatida maxsus o'rganilamagan.

Ibn Sino, shoir Furqat va ma'rifatparvar Munavvar Qori hayoti, ijodini tarixiy-biografik jihatdan ilmi-badiiy inkshod etish.

Tarixiy-biografik xarakterda o'zbek adabiyotida esselar yaratilganligini kuzatamiz. Bizning izlanishlarimiz shuni ko'rsatadiki, mazkur mavzuda Aziz Qayumovning «Abu Ali, Ibn Sino»¹⁰ «Shoir Furqat»,¹¹ Sirojiddin Ahmadning «Mknavvar Qori» va boshqa bir qator asarlar yaratilgan. Har bitta asar muayyan ijodkorning shaxsiy mulohaza va qarashlari, adbiyotshunoslikning shu kungacha erishgan yutuqlariga tayanadi. Kompozitsion jihatdan har biri o'ziga xosdir. Fikrimizning tasdig'ini aziz Qayumovning «Abu Ali Ibn Sino» esse misolida kuzatamiz.

Yuqorida nomi qayd qilingan asar 31 qismdan tashkil topgan bo'li, unda mashhur hokim Ibn Sinoning o'smirlik davridan umrining oxirigacha bo'lgan hayoti va faoliyati qalamiga olinadi.

Asar tubandagi qismlardan tashkil topgan:

1. Buxoro, Buxoro kutubxonasi 101-104 betlar
2. Ustozlar 104-106 betlar

⁹ N. Xojamov, B. Sarimsoqov «Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-uzbekcha izo'mi lu'ati», Toshkent, «O'qituvchi» nashriyoti, 1983 yil, 870-371-betlar.

¹⁰ Aziz Qayumov «Abu Ali, Ibn Sino» esse Sharq yulduzi jurnali 1984 yil II-12-son

¹¹ Aziz Qayumov «Shoir Furqat» esse Sharq yulduzi jurnali 1986 yil 4-5-sonlar.

3. Amrning kasali 106-107 betlar
4. Dastlabki asarlar 107-109 betlar
5. Vido 109-110 betlar
6. Xorazm. Gurganj shahri 110-111 betlar
7. Bazor 111-113 betlar
8. Silni davolash 113-114 betlar
9. Safar 114-117 betlar
10. Jurjon, Jabol, Ray 117-119 betlar
11. Kutilmagan uchrashuv 119-120 betlar
12. Javob 120-121 betlar
13. Turmush kundaliklari 121-bet
14. Adham va Zulfiya 121-123 betlar
15. Hamadan «Obod risolasi» 123-125 betlar
16. Suhbat 125-126 betlar
17. «Yurak dorilari» 126-127 betlar
18. Vazirlik 127-128 betlar
19. Fitna 128-132 betlar, «Sharq yulduzi» 1984 yil

II Sonda.

20. Xizmat va turmush 88-90 betlar
21. «Ash shifo»ning mazmuni» 90-91 betlar
22. Xiyonat va ig`vo 91-92 betlar
23. Farjon qal`asi 92-93 betlar
24. Qal`adagi ijod 93-bet
25. Isfaxon safari 93-96 betlar
26. Yozishma 96-98 betlar
27. «Donishnoma» yoki «Kitobi Atoiy» 98-100 betlar
28. Ijod og`ushida 100-101 betlar
29. Mo`jizakor tabob 101-103 betlar
30. «Tab qonunlari» 103-108 betlar
31. Abadiylik 108 bet.

Buxoro «Buxoro kutubxonasi» bo`limi qadimiy Buxoro shahrining markazi va undagi salobatli hamda naqshinkor binolar (Ark, kutubxona, naqshinkor imoratlar) tasviri bilan boshlanadi. Kitobxona Buxoro amiri Nuh Ibn Mansur va uning boy kutubxonasi O`sha davridagi madaniyat, ma`rifat maskani bilan tanishdi. Muallif bizni o`n etti-o`n sakkiz yoshlar chamasidagi bir o`spirin yigit bilan tanishtiradi. Biz hali u yigitning Ibn Sino ekanligini birdaniga bilmaymiz. Aniqrog`i muallif buni hozircha kitobxondan sir tutadi. Mulozimning so`zlaridan so`ng qahramonimizga amir hazratlarining kutubxonasidan foydalanishga ijodat berilganligini anglaymiz. Biroq, bizning ko`z o`ngimizda 17 yoshlar o`spirin qanday qilib amirning nazariga tushganligi hali oydinlashmaydi. Muallif tomonidan uning tabib ekanligini bilamiz. Yosh bo`lishiga qaramasdan ilmga tashna bo`lgan bu yigit yunon tabiblari, olimlar, rimlik donishmandlar, arab va forsning eng buyuk kishlari asarlarini ko`rib, o`zida yo`q sevinadi. Aziz Qayumov bu manzarani «Kitob do`sti, hamisha mutolaaga tashna Husayin atrofdagi qavat-qavat ajoyib kitoblarni ko`rib, o`zini xuddi to`satdan xolvaxonaga kirib yosh boladay his etdi». (102-bet) deb tariflaydi.

Kiyin Ibn Sinoning har kuni bu mo``tabar dargohga kelib bebaho xazina, kitoblarni mehr bilan mu`tolaa qilishi tasvirlanadi. Kutubxonada o`tkazilgan davrida yosh tabib har-bir olimning ilim qanday o`rin egallaganligini guvohi bo`ladi. Muallif Xusayinning kutubxonadan uyiga qaytishida yo`l yo`lakay kitob sotiladigan do`konlar yonidan o`ta turib bir do`kondorlarning tavsiyasiga muvofiq, Abu Nosir Farobiyning Arastuning «Metafizika» kitobiga yozgan sharhini olib o`tishi va shu paytgacha mag`zini chaqa olmagan masalalariga bu kitobdan echim topganligini tasvirlaydi. Bu esa qahramonimizning tabobat sohasidan tashqari o`z davrida ma`lum va mashhur bo`lgan barcha ilmlar ihlosmandi ekanini ko`rsatadi.

Asarning ikkinchi «Ustozlar» bo`limida muallif Xusayin Ibn Abdulloh ya`ni Ibn Sinoga ilm egallashda rahnomalik qilgan kishlar bilan

kitobxonni tanishtira turib, tabibga bu sohada baxt va omad kulib boqqanini e`tirof qilib o`tadi. U davrining mashhur va zukko faylasuf, qonunshunos va tabiblardan bilim oladi. Hayoti maboynida ulardan to`g`ri foydalana oladi. Bo`lajak tabibning birinchi muallimi buyuk tabib Nojmi bo`ladi. Keyinchalik Xusayin yangi ustoz Abu Mansur al Hasan Ibn Nuh al Qumiriydan saboq oladi, tabbobat sahosisidagi bilimlarni boyitadi.

ULUG` MA`RIFATCHILAR FAOLIYATINING BADIY TALQINI

Bizni tarixiy-biografik xarakterda o`rganadigan yana bir essemiz Sirojiddin Ahmad qalamga mansub bo`lib, «Ulug` ma`rifatchilar» rukni ostida «Munavvar Qori» ¹² deb nomlanadi. Asarni shartli ravishda uch qismga bo`lib o`rganishga qaror qildik. Bular:

1. Muqaddima yoki Munavvar qori kim edi?
2. Munavvar qori Abdurashidxonovning ilmiy pedagogik faoliyati.
3. Munavvar qori-xaqsizlik qurboni.

Sirojiddin Ahmad asarni «El uchun kuyib-yongan, ma`rifat chirog`ini yoqqan kishilarning nomi hech qachon unut bo`lmaydi. Bunday insonlarni siyosatbozlar qanchalik qoralamasinlar, o`zlari el, tarix, zamon oldida tasqara bo`lib qolaveradilar. Uning sironli yillarda bosib o`tgan hayot yo`lini, zulm va zo`ravonlikka qarshi, ilm-ma`rifat yo`lida olib borgan ibratli ishlarini birma-bir qalamga oladi. Qisqasi, asar bilan tanishish jarayonida Munavvar qori shaxsi, uni xalq manfati, baxt-saodatni, millat ravnaqi yo`lida qilgan taxsinga loyiq ishlarining shaxsan guvohi bo`lamiz.

Abdurashidxon sotiboldixon olim o`g`li, Munavvar qori 1978 yilda Toshkent shahrining markaziy dahosi-Shayx Hovand Taxurning darhon maxallasida mudarris Abdurashidxon va Xosiyat otin oilasida dunyoga keldi. Qahramonimiz etti yoshida otasidan etim qoladi. Dastlabki ta`limni onasidan oladi, madrasada savod chiqarganidan keyin o`sha davrda O`rta Osiyoning ilm markazi hisoblanmish Buxoroda tahsil ko`radi.

Muallif bizni Munavvar qori shaxsi bilan tanishtirar, ekan uning «Men sendamen, sen mendasen» hikmatiga muvofiq elimiz, millatimiz qalbiga ma`rifat va ozodlik, erk va hurlik nurini sohib, hayotning

¹² Sirojiddin Ahmad «Munavvar Qori» esse «Sharq yulduzi» 1992 yil 5-son 105-bet 128-betlar.

sertashvish yo'llarini munavvar qilishga intilgan alloma ekanini alohida ta'kidlab o'tadi.

1900 yildan boshlab musulmon yoshlari orasida yangicha ijtimoiy qarash uyg'onadi. Natijada ziyolilar orasida tabaqalanish sodir bo'ldi. Taraqqiyoparvar kishilarni «Jadid», qaloq fikirlilarni «qadim» deb atash rasm bo'ldi. So'zsizki, qahramonimiz Munavvar qori taraqqiyoparvarlar safiga qo'shildi va tez orada uning yo'l boshchilaridan biriga aylanadi. Bunda o'sha davrdagi matbuotning ahamiyati katta bo'ldi. Boqchasaroyda nashr etilgan «Tarjimon», Tataristonda chop etilgan, «Vaqt», «Yulduz» jaridolari, misrlik ma'rifatparvar va inqilobchi Muhammad Abduhning (1849-1905 y) Islom mamlakatlariga yoyilgan inqilobiy va isloatchilik g'oyalari muhim ahamiyat kab etdi.

Muallif ta'kidlashicha, Munavvar qori Turkiston, Ozorboyjon, Tatariston, Qrim xalqlarining ma'naviy yo'l boshchisi bo'lgan Ismoil Gasprlining o'qish va o'qitish, maktab va madrasa islohatiga oid fikrlariga havas va ihlos bilan qaraydi. Chunki, bu davrda eski arab va fors maktabi uslubida faoliyat ko'rsatuvchi ibtidoiy maktab va madrasalarning o'quv-pedagogika ishlari ancha eskirib qolgan edi. Bu masalaning bir tomoni bo'lsa, Munavvar qori va boshqa zamonasining ilg'or fikrli kishilarini qiynayotgan yana bir katta muammo ham bor edi, u ham bo'lsa, chor hukumatining Turkiston o'lkasida maorifni rivojlantirmoslik uchun qilayotgan astoydil harakatlari edi.

Muallif asarda yana missoner Ostroumov, Muromevlarning o'zbek, qozoq-qirg'iz xalqlarini ma'rifatdan mahrum qilish niyatida turli yig'inlar o'tkazganliklarini va qabix niyatlarini amalga oshirish maqsadida qilgan ishlarini ham keltirib o'tadiki, ularga ko'r-ko'rona ergashgan kishilarga nisbatan nafratning oshadi. Shunday bo'lsada Munavvar qori tanlagan yo'lidan aslo voz kechmadi. Turkistonga och nazar bilan qarayotgan, uning boyliklarini shafqatsiz tashiyotgan, milliy ozodlik xarakatlarini qonga botirayotgan ma'naviyat tajavuzkorlarga zarba berishning birdan-

bir yo`li maktab ta`lim-tarbiyasidagi islohatdir deb o`ylagan Munavvar qori rus-tuzum maktablariga qarshi yangi maktablar ochish fikriga keldi. U maktabni isloh qilmay turib, odamlarning ongida o`zgarish yasab bo`lmasligini yaxshi tushunar edi. Sirojiddin Ahmad «Nauka i prosveshenie» masallasidan shunday bir ma`lumot keltiradiki, «Munavvar qori Abdurashidxonovning «Namuna» maktabida bir necha yuz bola o`qigan.

Bu maktabda tayyorgarligi anchagina jiddiy bo`lgan iste`dodli yoshlar o`qituvchilik qilishgan. Ularning qo`lida ta`lim olgan yoshlar orasidan keyinroq Hamza, Qayum Ramazon, Oybek, Mannon Uyg`ur kabi iste`dodli adib va san`atkorlar etishib chiqqan. bu fikrlar ulug` pedagogning olib borgan tahsinga sazovar ishlaridan bir dalolat hisoblanadi.

O`lkada ma`rifatparvarlar ochayotgan yangi uslubdagi maktablar, ular o`rgatayotgan dasturlar chor hukumati e`tiboridan chetda qolmadi. Mustamlakachilar o`lkadagi eng katta dushmanlarini millat ziyolilari, ma`rifatli kishilar deb bilardilar. Shu sababdan taraqqiyparvar kishilar orasiga hifiyalar qo`yganlar, kerakli ma`lumotlarni shu ayg`oqchilardan batafsil olib turganlar.

Ammo, bu qarshi xatti-harakatlar Munavvar qorini o`z maqsadidan qaytara olmadi. U «Turon» jamiyati a`zolari, mahalliy boylarning e`tiborini maorif ishiga torta bildi. Ularga yoshlarni Germaniyaga borib o`qib kelishi uchun mablag` ajratishlarini, maorifni yuksaltirish uchun yordam berishlarini so`rab murojaat qiladi va maqsadini ro`yobga chiqarishga musharraf bo`ladi.

Muallif bu fikrlarni bir qancha kishilar bildirgan xotiralarga asoslanab keltirgan bo`lib, Germaniyaga o`qish uchun 4 kishi yuboriganini va ularga qaysi mahalliy boylar tomonidan yordam uyushtirilganini ham sharhlab o`tadi. Yuqoridagi fikrlardan ma`lum bo`ladiki, zolimlar qanday xunar ko`rsatmasin, Munavvar qori mahalliy

boylarning boshini qovushtirib, ma`rifatga xizmat qildiradi. Shu sababli ham u bir necha bor hibsga olinib, so`ng qo`yib yuborilgan, ammo buyuk pedagog bunga parvo qilmay kurashavergan. Yuqorida aytib o`tganimizdek, asarning ikkinchi bo`limini «Munavvar qori Abdurashidxonovning ilmiy pedagogik faoliyati» deb nomlagan edik. Bu bo`limda muallif Munavvar qorining ilmiy pedagogik faoliyati va badiiy asarlar yaratish borasida olib borgan ibratli ishlari xususida gapiradi. Muallif bayonidan ma`lum bo`ladiki, Munavvar qori Turkiston o`lkasida birinchilar qatorida «Adibi avval», «Adibi Soniy», «er yuzi» (Jo`g`rofiya), «Xavoyiji diniya» kitoblarini (1907 yilda) nashr ettirgan. Ulug` mutafakkur bu ishlar bilan cheklanib qolmasdan, o`ziga o`xshash ochiq fikrli yoshlar Ubaydulla Xo`jaev, Abdulla Avloniy, toshpo`latbek Norbo`tabekov, Karim Noribekov va boshqalar bilan hamkorlikda 1909 yilda toshkentlik boylardan birining raisligida «Jamiyati xayriya» tashkil etadi. Kiyinchalik Munavvar qori rahbarligida jamiyat to`laligicha yoshlar qo`liga o`tgan Munavvar qori safdoshlari bilan hamkorlikda jamiyatga tushgan mablag`lardan qashshoq va kasalmand kishilarga yordam uyushtirganlar, Rossiya va Turkiya oliy o`quv yurtlariga talablar yuborish bilan shug`ullanganlar. Munavvar qori Abdurashidxonov milliy matbaot shamal toshini qo`ygan jurnalistlardan biridir. U 1906 yilda «Xurshid» nomli jarida nashr etib, o`zi muharrirlik qilgan. Jarida ko`p vaqt faoliyat ko`rsata olmadi. Chunki unda ilgari surilayotgan g`oyalar oq poshsho siyosati manfaatlariga to`g`ri kemas edi. Shu sababli tezda yopib qo`yiladi. Keyinchalik u «Najot» (1917) «Kengash» (1917) «Xurriyat» (1917) «Osiyo», «Turon»da muharrir bo`lib faoliyat ko`rsatdi.

Munavvar qori 1914-1915 yillarda do`stlari Ubaydulla Xo`jaev, «Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho`lpon, mirmuhsin Shermuhammadov va boshqalar bilan birga «Sadoiy Turkiston» jaridasini nashr etib ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy jihatdan yuksak cho`qqiga olib chiqdi. Shu o`rinda muallif Sirojiddin Ahmadning quyidagi fikrlarini keltirishni joiz deb

topdik «Mazkur jaridaning madaniyatimiz tarixidagi o`rni va roli hali to`la ochib berilmaganicha yo`q. Masalan atoqli yozuvchi va shoir bo`lib etishgan Abdulhamid Cho`lpon ham ana shu jaridada ijodkor sifatida bo`y ko`rsatib voyaga etdi, elning sevimli adibiga aylandi». (110-bet).

Shubhasiz, «Sadoyi Turkiston» jaridasi o`sha davrning eng ilg`or ma`rifat taraqqatuvchi aridalarida edi. Bunda Munavvar qoridek bilimdon, ma`rifatparvar kishining faoliyat ko`rsatishi Xurshid, Lutfilla Llimiy, Mirmuhsin Shermuhammadov, Miskin, Hamza Mo`minjon Muhammadjonov kabi adib va jurnalistlarning kamolga etishishga sabab bo`ldi.

Asar bilan tanishar ekanmiz Munavvar qori nafaqat matbuot sohasida, balki teatrni yuksaltirish borasida ham samarali ishlar olib borganining guvohi bo`lamiz fikrimiz isboti sifatida uning 1913 yilda ish boshlagan «Turon» trupasini tashkil etish borasidagi faoliyatini keltirib o`tish kifoya. Munavvar qori «Turon» truppasi orqali xalqni madaniy saviyaga erishuvini ta`minlagan bo`lsa, tushgan mablag` evaziga Turkiston o`lkasida yashovchi muhtoj xalqqa yordam uyushtirdi. U teatrni kishilarni o`z aybini ko`rsatadigan va shundan xulosa chiqarib kamchiliklarini kuzatadigan joy deb qaragan. Namoyish etilayotgan sahna asari, shubhasizki tamoshabinga ta`sir ko`rsatadi. Qahramonimiz xalq bag`ridagi jaholatni yulib olib tashladi, el yuragida yangi san`at turiga, ya`ni teatrga muhabbat uyg`ota oldi. Bu fikrimizga «Turon» truppasining 1914 yildan to 1919 yilgacha faoliyati yorqin dalilidir. Munavvar qori teatr san`ati xususiyatlarini, dramaturgiya talablarini chuqur bilgan olimdir. Shu sababdan ham Hamzaga ustozlik qila olgan. Muallif ta`kidlashicha, Munavvar qorini Hamza ma`naviy oilam deya tan oladi va o`zi yaratgan yangi asarlarini, Munavvar qoriga ko`rsatib maslahatlar oladi. Esseda Munavvar qori va Hamzalarning bir- biriga yozgan maktublaridan 2 tasi misol tarzida aynan keltirilgan bo`lib, maktublarni, asosan, Hamza ustozidan maslahatlar so`rab yozgan Munavvar qori ham

o'z navbatida do'stiga yaxshi malahatlar bergan, yuborgan asarlari yuzasidan talab va istaklarini bayon etgan. Maktublardan yana shular ma'lum bo'ladiki, Hamza o'z piridan asarlarini bostirish masalasida yordam ham so'ragan. Muallif Sirojiddin Ahmad ta'kidlashicha, yozishmalardan Hamzaning «Feruzaxonim», «Milliy ashulalar», «Turdiqul», «Ikki maktub» nomli asarlari haqida so'z yuritiladi. «Feruzaxonim» Hamzaning taqdiri noma'lum romanidir degan xulosaga keladi muallif, hamda buni izlab topishni va yanada aniqlik kiritishni hamzashunoslarga havola qiladi. Munavvar qori Hamza singari qalamkashlarga moddiy va ma'naviy yordam berish bilan cheklanmaydi, u xalqimizni istibdod changalidan qutqarish uchun ham astoydil harakat qiladi. Munavvar qorining bu sohadagi faoliyatini muallif «Turkiston marikorlikka olish qo'mitasi»da olib borgan ishlarini keltirish bilan hikoya qiladi. Munavvar qori qo'mita raisining o'rinbosari etib saylagach, tahsinga loyiq ishlarini amalga oshiradi. Adib Ostroumov, Ilminskiy, Nolivkin kabi **millionerlarning** avlodiga uchmadi. Munavvar qori chor hukmati olib borayotgan siyosatning noto'g'riligini xalqqa tushuntirdi va bu masalada Peterburgga vakil yuborishni tashkil eitish ishlarida faol qatnashgan.

Muallif 1916 yil voqealarida Munavvar qori faoliyatini keltirish bilan siyosiy faoliyatini yaxshi ochib berishga harakat qiladi. Lekin Sirojiddin Ahmad Munavvar qori Abdurashidxonovning faoliyatini chuqur o'rganmay, vu'gar sotsiologizm nuqtai nazardan yondoshgan X. T. Tursunovning sohta materiallar keltirish bilan adib faoliyatiga holis baho berilmay kelinganini afsus bilan tilga oladi.

Muallif Munavvar qori faoliyatini yoritarkan, o'sha 1917-1924 yillar davomida xalq baxt-saodati yo'lida qilgan ishlarini dalilarga tayangan holda batafsil bayon qiladi. Munavvar qori 1917 yilning mayida o'tkazilgan taraqqiyparvar musulmon yoshlari va ruhoniylari ishtirokidagi qurultoyda «Shuroyi islomiya» jamiyati raisining muovini

etib saylanadi. Shahar dumasiga o'tkazilgan saylovlarda e'tibor qozonib dumaga a'zolikka o'tadi.

XULOSA

Yuqorida bildirilgan barcha fikrlarimizni umumlashtirib, shuni ishonch bilan aytish mumkinki, o'zbek adabiyotida mazkur mavzuda garchi nazariy kitoblarda bayon qilinmagan bo'lsada, salmoqli, e'tiborga molik asarlar mavjud ekan. Ularning umumlashtiruvchi jihatlar muayyan ijodkor hayoti, faoliyati haqida fikr bildirish, xronologik izchillik, qahramonlar taqdirining qisman bo'lsada o'xshashligi, boshqacha qilib aytganda ziddiyatli hayot yo'li, muallif bayoni kabilar bo'lsa har bir asar o'ziga xos talay jihatlar bilan bir-biridan farqlanadi.

Bular quyidagi hollarda ko'rinadi:

a) hajm.

Bevosita asarlardan kelib chiqib xulosa chiqaradigan bo'lsak, Aziz Qayumov yaratgan «Abu Ali Ibn Sino», Sirojiddin Ahmad qalamiga mansub «Munavvar qori» essesidan hajm jihatdan salmoqdor. Aziz Qayumov qahramonlarining hayotini yoshligidan yoki o'spirinligidan hikoya qilib boshlasa, Sirojiddin Ahmad bundan mustasno, ya'ni asarni boshidanoq muddaoga qo'l urib, qahramonini qisqacha tarjimai holini yo'l-yo'lakay keltirib o'tadi.

b) Muallifning dunyoqarashi, tafakkur tarzi, uslubi. Yuqorida o'rganilgan asarlarda har ikkala muallifning dunyoqarashi, tafakkur darajasi xilma-xiligining guvohi bo'lamiz. Asar yaratish usulbi ham o'ziga xos. A. Qayumov esselarida badiiylik birmuncha kuchliroq, Sirojiddin Ahmadning «Munavvar qori» essesida tarixiylik, aniq dalillar, sanalarni aynan keltirib voqealarni bayon etish ustivorlik qiladi. Bu ikk muallifning ijodidan o'ziga xoslik asarlar saviyasiga salbiy ta'sir ko'rsatilgan, aksincha, har bir ijodkorning ijodidagi o'ziga xos tomonlarini yaqqol aks ettirishga xizmat qilgan.

v) Ilmiy da`vo va xulosalardan foydalanish.

Muallif tarixiy shaxsni o`rganish jarayonida shubhasiz moziyga murojaat qiladi, qahramonining o`zi ham moziyning bir bo`lagi, ajralmas qismi. Shunday ekan, muallifning har bir fikri, chiqargan xulosalari dalillarga suyangon holda keltiriladi.

g) Muallif mulohaza va qarashlari asarda etakchi o`rin egallaydi. Asarda bayon qilingan voqealar izoh talab etmasa, kitobxonga tushunarli bo`lsa, asar yuqori saviyali deb baholanadi. Eng asosiysi, muallif bayonini kitobxonga qanday ta`sir ko`rsatishi, boshqacha qilib aytganda o`quvchi tomonidan qay tarzda qobul qilinishi va baholanishi.

d) Muallif muvaffaqiyatini belgilovchi olim-bu kitobxon. Asar kitobxon tomonidan qanday kutib olinsa va ijobiy bahosiga ega bo`lsagina, muallif muvaffaqiyati yaqqol seziladi.

O`zbek adabiyotida essening besh xil turi mavjudligi ayon bo`ldi, lekin izlanishlarimiz davomida biletrestik xarakterda yaratilgan mukammal esselarni uchratmadik. Shu sababli mazkur xarakterdagi esselarni keyingi tadqiqotlarimizda o`rgaishni maqsad qilgan holda bir turga mansub esselarni shu tur atrofiga jamlab, o`ziga xos va farqli jihatlarini nazardan o`tkazdik. Hozir bir misli ko`rilmagan fikriy erkinlik, plyuralizm dogmalarni emirish, qisqasi ruhiy inqilob jarayonida yashamoqdamiz. Davr talabi, zamon ruhiyati bilan uyg`unlashgan asarlar yaratilmoqdaki, esselar ham sirasiga kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.

1. Karimov. I.A. Iroda va iymon —e`tiqodimiz sinovi. -T.: O`zbekiston, 1999. -32
2. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. T.5. -T.: O`zbekiston, 1997. -384 b.
3. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar - tarakkiyot omili. - T.: O`zbekiston, 1995. -24 b.
4. Karimov I.A. Milliy istikdol mafkurasi. g`g` I.Karimov. Ma`naviy yuksalish yo`lida. -T., 1998. -B. 121-122.
5. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q.g`g` I.Karimov. Ma`naviy yuksalish yo`lida. -T., 1998. -B. 429-443.
6. XX asr o`zbek adabiyoti tarixi. Darslik (Normatov U, B.Nazarov, A.Kattabekov, O.Shafiddinov), -T.: Ukituvchi, 1999. -198 b.
7. Abdusamatov X Tarix va badiiy talkin. -T.: 1995. -183 b.
8. N. Xotamov va b. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o`zbekcha izohi lug`ati. Toshkent «O`qituvchi» nashriyoti 1983
9. Izzat Sulton «Adabiyot» nazariyasi Toshkent 1980
10. N. Shukurov va b. «Adabiyotshunoslikka kirish» Toshkent «O`qituvchi» nashriyoti 1979
11. Ozod Sharafiddinov «Xaqiqatga sadoqat» Adabiy-tanqidiy maqolalari. Toshkent g`ofur g`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti 1989
12. Asqad Muxtor Esse-erkinlik janri. «Yosh kuch» jurnali 1989 yil 9-son 17 bet.
13. Isroil Mirzaev «Adabiyot va davr dardi». Toshkent, «Fan» nashriyoti 1990
14. Otayor «Quyoshni ko`rgali keldim» esse Toshkent g`ofur g`ulom Adabiyot va san`at nashriyoti 1991

15. Xurshid Davron «Samarqand xayoli» esse Toshkent «Kamalak» nashriyoti 1991
16. Aziz Qayumov. «Abu Ali Ibn Sino» esse «Sharq yulduzi» jurnali 1994 yil II-son. 101-132 betlar, 2-son 88-108 betlar.
17. Aziz Qayumov «Shoir Furqat» esse «Sharq Yulduzi» jurnali 1986 yil 4-son, 126-149 betlar, 3-son 108-128 betlar
18. Sirojiddin Ahmad «Munavvar qori» esse «Sharq yulduzi» jurnali, 1992 yil 5-son.
19. [www. Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
20. [www. nuqf. intal. uz](http://www.nuqf.intal.uz)